



SAMARQAND VILOYATI PAYARIQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2026-yil 16-yanvar

75-7-100-Q/26

Payariq tumani hokimligi

Payariq tumani hokimligi boshqaruv apparatining yangilangan tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 22-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:


1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.
2. Payariq tumani hokimligi boshqaruv apparatining tashkiliy tuzilmasida tuman hokimining qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimi - Payariq tumani hokimining o‘rinbosari – tuman obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i lavozimiga o‘zgartirilsin.
3. Tuman hokimligi boshqaruv apparatining yangilangan tashkiliy tuzilmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
4. Tuman hokimligi tashkiliy-kadrlar guruhi (R.Hamdamov) mazkur qarorni Xalq deputatlari Payariq tuman Kengashining navbatdagi sessiyasi tasdig‘iga o‘rnatilgan tartibda kiritilsin.
5. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2025-yil 24-dekabrda 177-7-100-Q/25-sonli qarorining ilovasi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.
6. Mazkur qaror ijrosi yuzasidan nazoratni o‘z zimmasida qoldiraman.

Tuman hokimi



Sh.Xudayberdiyev

Tajriba-sinov davrida Payariq tumani hokimligi boshqaruv apparatining tuzilmasi



Boshqaruv xodimlarining umumiy cheklangan soni – 76,25 ta